

ABDULHAMID MAJIDIY NOMIDAGI KATTAQO'RG'ON SHAHAR DRAMA TEATRI

Xoliqulov Rustam Sharipovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti dotsenti

rustamholiqulov1957@gmail.com

Ahmadvov Sunnatillo Akmaljon o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tarix fakulteti magistranti

ahmadovs005@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15148904>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng teatr san'atining rivoji, milliy va zamonaviy yo'nalishlarning uyg'unligi, teatrning ma'naviy va madaniy taraqqiyotdagi o'rni yoritiladi. Samarqand viloyatidagi teatrlar, xususan, A.Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar drama teatrining faoliyati va yutuqlari alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, viloyat teatrlari misolida milliy teatr san'atining rivojlanish yo'nalishlari va xalqaro hamkorlikning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek teatr san'ati, mustaqillik, milliy san'at, xalqaro hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar, Samarqand viloyati teatrlari, Kattaqo'rg'on shahar drama teatri.

**КАТТАКУРГОНСКИЙ ГОРОДСКОЙ ДРАМАТИЧЕСКИЙ ТЕАТР ИМЕНИ
АБДУЛХАМИДА МАДЖИДИ.**

Аннотация. В данной статье описывается развитие театрального искусства после обретения независимости Узбекистана, гармония национального и современного направлений, роль театра в духовно-культурном развитии. Отдельно анализируются деятельность и достижения театров Самаркандской области, в частности Каттакорганского городского драматического театра имени А.Маджиди. Также на примере региональных театров рассмотрены направления развития национального театрального искусства и важность международного сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекское театральное искусство, независимость, национальное искусство, международное сотрудничество, современные технологии, театры Самаркандской области, Каттакорганский городской драматический театр.

**KATTAKURGON CITY DRAMA THEATER NAMED AFTER ABDULHAMID
MAJIDI.**

Abstract. *This article examines the development of theatrical art after Uzbekistan gained independence, the harmony of national and modern trends, and the role of theater in spiritual and cultural development. The activities and achievements of theaters in the Samarkand region, in particular the Majidiy Kattakurgan Drama Theater, are analyzed separately. Also, the development trends of national theatrical art and the importance of international cooperation are considered using the example of Tashkent and other regional theaters.*

Keywords: *Uzbek theater, independence, national art, international cooperation, modern technologies, Samarkand regional theaters, Kattakurgan City Drama Theater.*

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakatning madaniy hayotida, jumladan, teatr san'atida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu davr teatr san'atining qayta tiklanishi, milliy o'zlikni anglash, jahon madaniyatiga integratsiya va yangi ijodiy izlanishlar bilan xarakterlanadi.

Teatr san'atini rivojlantirishga davlat siyosati katta ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda qabul qilingan "Milliy teatr va kino san'atini rivojlantirish davlat dasturi"¹

sohani rivojlantirish uchun muhim asos bo'ldi. Ushbu dastur asosida teatrlar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi sahna texnologiyalarini joriy etish va ijodiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2017-yilda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi qaror"² esa teatr san'atining xalqaro maydonga chiqishida muhim rol o'ynadi. O'zaro xalqaro hamkorlik O'zbekiston teatrining yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Toshkentdagi Milliy drama teatri ijodiy jamoasi Yevropa va Osiyoda o'tkazilgan xalqaro festivallarda qatnashib, o'zbek teatr san'atini xalqaro miqyosda targ'ib etdi. Samarqand shahridagi musiqali drama teatri ijodkorlari esa 2018-yil 20–30-aprel kunlari Turkiyaning Konya shahrida, 2022-yil oktyabrda Qozog'istonda, Qirg'iziston va Rossiyada o'tkazilgan madaniy tadbirlarda o'z spektakllarini namoyish etib, xalqaro tanlovlarda sovrinli o'rinlarni egalladi.

O'zbekiston teatri XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa-da, uning haqiqiy milliy qiyofasi mustaqillik yillarida namoyon bo'ldi. O'zbekiston respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab, teatrlar repertuarida milliy mavzularning chuqur aks etishi, klassik asarlarning zamonaviy talqinlari va yangi sahna asarlarini yaratishga katta e'tibor qaratildi.

¹<https://lex.uz/docs/PF-1427-coh> 29.04.1996. "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasini tuzish to'g'risida".

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida" qarori, 2017-yil 16.10 PQ-3325-son.

Teatr faqatgina ko'ngilochar muassasa sifatida emas, balki xalqning ma'naviy kamoloti va madaniy o'zlikni mustahkamlovchi muhim institutga aylandi. Teatrlarimizda zamonaviy mavzuda spektakl yaratish bilan birga yurtimizda o'tgan buyuk tarixiy shaxslar, qatag'on qurbonlarining badiiy timsolini yaratishga alohida e'tibor kuchaytirdi. Natijada U. Azimovning Cho'lpon hayotidan hikoya qiluvchi „Kunduzsiz kechalar“ nomli pyesasi tomoshabinlarga taqdim etildi.

Kattaqo'rg'on shahar drama teatrida yillar davomida ijro etilgan spektakllardan: „Jar“, „Xotinlar gapidan chiqqan hangoma“, „Sab'ai sayyor“, „Alisher Navoiy“, „Abulfayzxon“, „Mehrobdan chayon“, „Chimildiq“, „Qalliq o'yin“, „Mashrab“, „Muhabbat sultoni“, „Daraxtlar tik turib jon beradi“, „Hamlet“, „Qirol Lir“, „Yetti faryod“ va boshqalar so'nggi yillar yaratilgan eng yaxshi spektakllardir.

Mustaqillikning ilk yillarida ro'y bergan iqtisodiy qiyinchiliklar madaniyat sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Teatrlar moliyaviy muammolarga duch keldi, repertuarni yangilash, yangi sahna asarlarini yaratish masalalari dolzarb bo'lib qoldi. Shunga qaramay, bu davrda teatr jamoalari o'z ijodiy salohiyatini saqlab qolishga, tomoshabinlar bilan aloqani mustahkamlashga intildi. Milliy o'zlikni anglash va milliy dramaturgiyaning rivojlanishi Mustaqillik yillari o'zbek teatri uchun milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni targ'ib etish davri bo'ldi. Bu davrda milliy dramaturgiya rivojlandi, o'zbek adiblarining asarlari sahnalashtirildi. Xususan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi jadid adiblarining asarlari qayta tiklanib, sahna yuzini ko'rdi. Bu esa tomoshabinlarda milliy g'urur tuyg'usini oshirishga, o'zbek madaniyatiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qildi.

Xususan hududiy teatlardan bo'lgan Samarqand viloyati teatrlarining rivoji e'tiborga loyiqdir. Samarqand musiqali drama teatri milliy va zamonaviy asarlarni uyg'unlashtirish orqali nafaqat viloyatda, balki butun respublika miqyosida o'ziga xos ijodiy o'rinni egalladi. Teatr sahnasida sahnalashtirilgan „O'tkan kunlar“ spektakli milliy teatr san'atining yuksak namunasi sifatida ko'rib chiqildi³. Samarqand viloyati teatri nafaqat ijodiy yutuqlari, balki teatr arboblari bilan ham mashhurdir. Aktrisa Shoira Davlatova va rejissyor Ulug'bek Qurbonov kabi ijodkorlar xususan teatrning milliy va zamonaviy yo'nalishlarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan asarlar yaratishda katta hissa qo'shdilar.

³ Akbarov M. „Kattaqo'rg'on teatri va milliy qadriyatlar“. „San'at“ jurnali, 2021.

A. Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar musiqali drama teatri ham viloyatdagi yana bir yorqin madaniy o'chog'idir.

Teatr mustaqillik yillarida o'z repertuarini milliy asarlar bilan boyitib, tomoshabinlarning madaniy saviyasini oshirishga katta hissa qo'shdi. Teatrning "Shayx San'on" va "Bobur" kabi spektakllari nafaqat mahalliy, balki milliy darajada ham yuksak baholandi. Teatr jamoasi Samarqand viloyati va boshqa hududlarda gastrollar uyushtirib, milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda faol ishtirok etdi.

Kattaqo'rg'on shahri teatri 1921 yilning 15 yanvarida Ziyo Saidning "Qonli kun" (Toshkent isyoni) spektakli bilan o'z ishini boshlagan. Kattaqo'rg'on shahar drama teatri 2016 yilga qadar turli nomlar bilan yuritilib kelindi. 1928 yili unga "Haqiqat" nomi berildi.

Teatrning shakllanishi va ijodiy taraqqiyotida A.Boltayev, S.G'afurov, R.Hasanova, Q.To'rayev, S.Hayitov, X.So'fiyev, A.Karomatov kabi mahalliy aktyorlar, shuningdek, A.Sulaymonov, S.Jo'raboyev, Z.Qobulov kabi Samarqand musiqali drama teatri aktyor va rejalarining xizmatlari katta. XX asrning 30-yillari 2-yarmida teatrga Sh. Meliyeva, R. Rizayev, T.Yo'ldoshev, L.Melnikova (Jamilova) va boshqa iste'dodli yoshlar kelib qo'shildi. "Halima" (G'.Zafariy), "G'unchalar" (3. Fatxullin; D.Zokirov), "Maysaraning ishi", "Xolisxon" (Hamza), "Adolat" (I. Akramov; Sh. Akramov) kabi spektakllar qo'yildi.

1940 yilda esa "Kolxoz-sovxozi teatri" nomi bilan tomoshalar ko'rsatdi. Urush yillari teatr vaqtincha badiiy-tashviqot brigadasiga, aylantirildi. Teatrda "Muhabbat" (Tuyg'un), "Muhabbat guli" (H. Muxtorov), "Nurxon" (K.Yashin; T.Jalilov, G.Sobitov) va boshqa spektakllar sahnalashtirildi. 1953 yil Kattaqo'rg'on shahar o'zbek musiqali drama teatri sifatida qayta tashkil bo'ldi. Teatrga respublikaning boshqa teatrlaridan X.Boboxonova, H.Muhiddinov, H.Omonova singari san'atkorlar kelib qo'shildi. Repertuaridan "Oftobxon" (K.Yashin; X. To'xtasinov), "Og'riq tishlar" (A. Qahhor), "Paranji sirlari", "Xolisxon" (H.Hamza), "Vatan ishq" (Fatxullin, Sh.Sa'dulla; S.Boboyev) kabi spektakllar o'rin oldi⁴.

1958-1961 yillar orasida Kattaqo'rg'on shahar musiqali teatri deb ataldi. 1962 yilda esa Kattaqo'rg'on shahar o'zbek davlat drama teatri nomi berildi.

XX asr 60—70-yillarida milliy dramaturgiyaning ravnaqi, milliy teatr san'atining rivoji mazkur teatr faoliyatida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Teatr repertuaridan yangi-yangi asarlar

⁴https://uzpedia.uz/pedia/abdulhamid_majidiy_nomidagi_kattaqorgon_shahar_ozbek_drama_teatri

o‘rin oldi; Jumladan, "Tobutdan tovush" (A.Qahhor), "Aldangan sevgi" (U.Ismoilov), "Imon" (I.Sulton), "Oltin devor" (E.Vohi-dov), "Besh kunlik kuyov" (Shuhrat), "Ajab savdolar" (H.G‘ulom), "Qaysar qaynona" (H.Rasul), "Kelinlar qo‘zg‘oloni" (S. Ahmad), "Parvona" (Uyg‘un) va boshqa shular jumlasidan. 1976 yil teatrga Abdulhamid Majidiy nomi berildi.

Abdulhamid Majidiy (taxallusi Abutanbal, A. B., Chaqmoq 1902 — Kattaqo‘rg‘on — 1938) — o‘zbek shoiri, dramaturg, adabiyotshunos, jurnalist, pedagog. Dastlab eski maktabda, so‘ngra Kattaqo‘rg‘onda ochilgan rus-tuzem maktabida ta‘lim oldi. "Zarafshon" (1925 — 26), "Ozod Buxoro" (1927-28) gazetalarida muharrirlik qildi. Xorazm viloyat teatrida direktor, adabiy emakdosh (1929-33). Toshkentda "Mushtum" jurnalida (1934-37) ishladi. 1920 yildan matbuotda uning she‘rlari bosila boshladi. "Xandon lolalar" (1929), "Qaldirg‘och" (1932), "Hangoma" (1937) nomli she‘riy va nasriy to‘plamlari chop etilgan. "Varqa va Gulshoh", "Otsiz" pyesalari bor. Kattaqo‘rg‘on shahridagi teatrda Abdulhamid Majidiy nomi berilgan.

Adibning *"Zarafshon" gazetasi*da chop etgan maqolasidan qisqacha havola qilamiz; "Davlat truppasi ishga boshlag‘andan beri, xalq dramag‘a ham qatnayturg‘an bo‘lib qoldi. Bu esa kundan-kunga o‘tib borayotibdir. Lekin "Yana uylanaman" kabi narsalar bu ishning beliga tepadi.

Qancha mashaqqat bilan tayyorlang‘an bir narsa ko‘yga ketkan edi. "Yorqinoy" qisman o‘sha kamchilikning yuzini qopladi. Bundan keyin xalqni drammag‘a tortish choralari ko‘rish kerak. Truppaning repertuarida yaxshi narsalar ko‘b, lekin hali "eski mollar"ni o‘tkazib turibdir.

Bularning ba‘zilari, har qancha eski bo‘lsalar ham, yana shuncha yangilik xususiyatini saqlaydilar. Bunga qaramasdan qishliq mavsumni muvaffaqiyatli o‘tkazish tilagida yaxshi asarlarni tarjima qilish kerak. Ayniqsa, sharqda Ovrupo imperiyalizmasining qilg‘an vahshiyliklarini buyuk bir mahorat bilan ochib bera olaturg‘an "Do‘xtari hindu"larni sahnaga chiqarish kerak. Biz ham ko‘b qatori bir tomoshachi bo‘lg‘animiz uchun davlat truppasidan ana shu tilaklarning amalga chiqarilishini samimiyat bilan so‘raymiz."⁵

A.Majidiy

"Zarafshon" gazetasi 1927-yil 7-dekabr.

1980-yillar teatrning eng gurkiragan, o‘rish davri bo‘ldi. Teatr davr va tomoshabin talabiga mos asarlarni sahnalashtirdi, ijodkor yoshlarga alohida e‘tibor berildi. O‘zbek dramaturglari asarlaridan tashqari tarjima asarlar ham sahnalashtirildi. "Qonli to‘y" (Garsia

⁵ [https://wikisource.org/wiki/%C2%ABYorqin_oy%C2%BB_\(Abdulhamid_Majidiy\)](https://wikisource.org/wiki/%C2%ABYorqin_oy%C2%BB_(Abdulhamid_Majidiy))

Lorka), "Makr va muhabbat" (F.Shiller), "Rustam" (U.Ismoilov), "Tushovlangan tulporlar" (Sh.Boshbekov), "Ezgulik va yovuzlik" (A.Suyun, S.Abdulla), "Zebunniso" (Uyg'un), "Oy tutilgan tunda" (M.Karim), "Kurort" (O'.Umarbekov), "Nasriddinning sarguzashtlari" (Yu. Azimzoda) va boshqa spektakllar bilan teatr o'z mavqeini mustahkamlab oldi. 1985 yil teatr qoshida "Qaldirg'och" bolalar eksperimental studiyasi ochildi.

XX asrning 90-yillar teatr ijodkorlari davrga hamnafas, milliy ruh bilan yo'g'rilgan buyuk allomalarimiz hayotini yorituvchi tarixiy asarlar, chet el mumtoz asarlariga murojaat etdi. "Bir kam dunyo" (I.Hasanov), "Hayqiriq", "Tadbirkor Olmaxon" (Yorqin), "Fig'on" (Sh.Siddiqiy), "Zamon o'g'loni" (T.Akbarxo'jayev), "Shum bola" (G'.G'ulom), "Medeya" (Evripid), "Saodat yo'li" (Muhammad Ali Ergash), "Qo'shnilar" (M. Toshpo'lat), "To'y o'rniga tomosha" (T. Akbarxo'jayev) kabilar so'nggi yillarda sahnalashtirilgan eng yaxshi spektakllardir.

Turli yillarda teatrning rivojlanishida rejessorlardan A.Jo'rayev, Z.Ro'ziyev, R.Orifjonov, I.Nurmonov, N.Shomurodov, rassomlardan M.Yesipov, G.Kalantarov, M.Sobirov, artistlardan Sh.Meliyeva, Sh.Aminov, N.O'tayev, Sh.Musayeva kabilarning xizmatlari katta. Hozir kunda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar G.Mamedova, I.Xonimqulov, A.Abdurazzoqov, artistlardan A.Qarshiboyev, D.Egamova, I.Sultonov, G.Rizayeva, Q.O'sarova, G.Jabborova va boshqalar barakali mehnat qilishmoqda, ular teatrning yetakchi aktyorlaridir.

Teatr binosi o'z davriga xos holda qayta qurilib 1976 yilda foydalanishga topshirilgan, 2016 yilda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning tashriflari munosabati bilan kapital ta'mirlangan va moddiy-texnik bazasi mustahkamlangan. Tomosha zali o'rindiqlari soni 450 ta. Shoir, rejissyor, dramaturg Abdulhamid Majidiy Kattaqo'rg'on shahar drama teatrining asaschilaridan sanaladi. Teatr faoliyatini boshlagan yillarda teatr repertuaridan K.Yashinning "O'rtoqlar", U.Ismoilovning "Hodishodi", H.Muxtorovning "Muhabbat guli", Hamzaning "Maysaraning ishi", B.Rahmonovning "Dili boshqa-yu, tili boshqa", N.Gogolining "Uylanish" kabi asarlari asosidagi spektakllar o'rin olgan⁶.

Bugungi o'zbek teatri: Muammolar va istiqbollar

Bugungi kunda o'zbek teatri oldida bir qator muammolar turibdi. Ulardan eng muhimlari – yosh tomoshabinlarni teatrga jalb qilish, teatr san'atini moliyalashtirish, yangi dramaturglar va rejissyorlarni yetishtirishdir. Shunga qaramay, o'zbek teatri o'zining boy an'alariga, ijodiy salohiyatiga va kelajakka ishonchiga ega.

⁶Akbarov M. "Kattaqo'rg'on teatri va milliy qadriyatlar". "San'at" jurnali, 2021.

Xulosa qilib aytganda Mustaqillik yillarida o'zbek teatri katta yo'lni bosib o'tdi. Milliy o'zlikni anglash, jahon madaniyatiga integratsiya, yangi ijodiy izlanishlar bu davrning asosiy xususiyatlari bo'ldi.

O'zbek teatri o'zining boy an'alarini saqlab qolgan holda, zamon bilan hamnafas bo'lishga, tomoshabinlar ehtiyojlarini qondirishga intilmoqda. Kelajakda o'zbek teatri yanada yuksalib, jahon teatr san'atida o'zining munosib o'rnini egallashiga ishonchimiz komil. Xususan A. Majidiy nomidagi Kattaqo'rg'on shahar drama teatrining bugungi kunda ham salmog'i oshib bormoqda, yaqin kelajakda ham milliy teatr san'atimizda muhim ustun bo'lib qolishiga ishonamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risida" qarori, 2017-yil 16.10 PQ-3325-son .
2. <https://lex.uz/docs/PF-1427-coH> 29.04.1996. "O'zbekkino" davlat-aksionerlik kompaniyasini tuzish to'g'risida".
3. To'xtaboyev T. "O'zbek teatrining tarixi". Toshkent: Sharq, 2005.
4. Akbarov M. "Kattaqo'rg'on teatri va milliy qadriyatlar". "San'at" jurnali, 2021.
5. [https://wikisource.org/wiki/%C2%ABYorqin_oy%C2%BB_\(Abdulhamid_Majidiy\)](https://wikisource.org/wiki/%C2%ABYorqin_oy%C2%BB_(Abdulhamid_Majidiy))
6. https://uzpedia.uz/pedia/abdulhamid_majidiy_nomidagi_kattaqorgon_shahar_ozbek_drama_teatri